



MOVAROUNNAHR MUFASSIRLARINING TAFSIR ILMIGA QO'SHGAN HISSASI

Rahmonova Marhaboxon Zulfiqaxxor qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

1-kurs magistranti

Annotatsiya: So'nggi yillarda O'zbekistonda ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi, xususan, islomshunoslik ilmiga oid yozilgan nodir asarlarni chuqur o'rganish, Abu Mansur Moturidiy, Abul Barakat Nasafiy, Imom Termiziy, Mahmud Zamaxshariy kabi Movarounnahr zaminidan yetishib chiqqan allomalarning ilmiy merosini chuqur tadqiq etish, ularning asarlarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida o'rganish zarurligi ta'kidlanmoqda. Shu bois "Movarounnahr mufassirlarining tafsir ilmiga qo'shgan hissasi" ni maxsus tadqiq etish nafaqat Qur'on ilmlari taraqqiyotidagi tarixiy jarayonlarni yoritish, balki bugungi diniy-ma'rifiy va ma'naviy islohotlarning ilmiy-metodologik asoslarini mustahkamlash nuqtayi nazaridan ham dolzarb ilmiy-ma'naviy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *tafsir, Qur'on, ta'vil, aqida, balog'at, ahli sunna val-jamoa, lug'at, sababi nuzul, qiroat, mufassir.*

Abstract: *In recent years, increasing attention has been paid in Uzbekistan to the in-depth study of the rich spiritual heritage of our ancestors, particularly the rare works written in the field of Islamic studies. Special emphasis is placed on the comprehensive research of the scholarly legacy of eminent scholars who emerged from the land of Mawarannahr, such as Abu Mansur al-Maturidi, Abul Barakat al-Nasafi, Imam al-Tirmidhi, and Mahmud al-Zamakhshari, as well as on examining their works through modern academic approaches. In this regard, a focused study on the contribution of Mawarannahr exegetes to the science of Qur'anic exegesis (tafsir) is of great scholarly and spiritual significance. Such research not only illuminates the historical development of the Qur'anic sciences but also contributes to strengthening the scientific and methodological foundations of contemporary religious, educational, and spiritual reforms.*

Keywords: *Tafsir, Qur'an, Ta'wil, Aqidah, Rhetoric (Balaghah), Ahl al-Sunnah wa al-Jama'ah, Lexicography, Asbab al-Nuzul, Qira'at, Mufassir*

Tafsir ilmi islom ilmlarining eng katta va qadimgi ilmlaridan biri hisoblanadi. Qur'oni karim- musulmonlarning eng asosiy manbasi hisoblanib, uning mazmun-mohiyatini chuqur anglash, amaliy hayotga tatbiq qilish uchun tafsir ilmi paydo bo'lgan va taraqqiy etgan. Har bir davr mufassirlari Qur'on oyatlarini o'z zamonlari ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ilmiy darajasiga qarab sharhlab, tafsir ilmiga o'z

hissalarini qo'shganlar. Ushbu maqolada ana shunday mashhur Movarounnahr mufasssirlarining faoliyati va tafsir ilmiga qo'shgan hissasi yoritiladi.

Tafsir ilmi dastlabki asrlarda sahobalar orqali og'zaki tarzda rivojlandi.⁵² Keyinchalik bu ilm yozma manbalar shaklida shakllanib, maxsus tafsir kitoblari paydo bo'ldi. Muhaddislar Qur'on tafsiri to'g'risidagi asarlarni jamlagan birinchi kishilar deb e'tirof qilinadilar. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy "Kashfuz-zunun" asarida keltirilishicha, u zot "Tafsirul-kabir" nomli alohida bir tafsir kitobini yozganliklari aytiladi. Ammo ushbu kitob bizgacha yetib kelmagan. Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-sahih" kitobida Qur'oni karim tafsiriga oid mingdan ziyod hadis mavjud. Hijriy ikkinchi asrda tafsir ilmi hadis ilmidan mustaqil bir ilm sifatida shakllangandan so'ng, Movarounnahrdan ulkan mufasssirlar yetishib chiqdilar. Ana shunday buyuk ulamolardan biri Abu Mansur Moturidiydir.

Abu Mansur Moturidiy "Ta'vilot al-Qur'on" asari. Abu Mansur Muhammad ibn Mahmud Moturidiy Samarqand yaqinidagi Moturid qishlog'ida tavallud topgan. Ta'vilot al-Qur'on" asari – moturidiya ta'limoti asosi. Unda hanafiylik, Ahli sunna val jamoaning butun aqidasi ta'lif qilingan. Asarda mo'tazila, xavorij, rofiza, karromiy, jahmiy, mushabbiha kabi botil firqalarning, munajjim, folbin va shular singari insonni sog'lom fikrdan chalg'ituvchilarning qarashlari, g'oyalari, iddaolari, hozirgi zamon istilohi bilan aytganda, demagogiyasi munoqasha qilingan va barchasiga ilmiy asosda raddiya berilgan.⁵³

Shu sababli ham Qur'oni karimning tafsiri va ta'viliga bag'ishlangan bu asar asrlar davomida o'zining ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda, uning ma'no-mazmuni bugungi kunda ham o'ta dolzarb bo'lib, ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda muhim o'rin tutmoqda.

Asardan ko'plab hadislar, sahobalarning so'zlari o'rin olgan. Xususan, Abdulloh ibn Abbosdan naql qilingan rivoyatlar juda ko'p o'rinda zikr etiladi. Tadqiqotchilar to'qsonga yaqin sahoba va tobe'inning nomlari qalamga olinganini hisoblab chiqqanlar. Bundan tashqari, yigirmadan ziyod lug'at va tafsir ulamosi fikrlaridan foydalanilgani qayd etilgan.

Imom Zamaxshariy "Al-Kashshof" asari. Abul Qosim Mahmud binu Umar Zamaxshariy 1075-yili Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan. Uning "Al-Kashshof" nomli tafsiri lug'aviy va mantiqiy yondashuvi bilan mashhurdir. Bu asar yozilganiga to'qqiz asrdan ko'p vaqt o'tishiga qaramay, o'z qiymatini yo'qotgani yo'q. Mufasssir unda Qur'oni karim oyatlarining balog'ati, fasohati va boshqa nozik jihatlarini ko'rsatib bergan. Tafsirning mashhurligini qo'lyozma nusxalarining ko'pligida, unga o'nlab xoshiya va sharhlar yozilganida ko'rish mumkin. Birgina Misrdagi "Dorul-kitob al-Misriyya" kutubxonasidagi tafsirning sakson beshta qo'lyozmasi bor. Manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda alloma bu nodir asarini ikki

⁵² Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Qur'on ilmlari. Toshkent: Hilol nashr, 2017. B.112

⁵³ Ziyovuddin Rahim. Islom aqidasi. Toshkent: Sharq 2020

bosqichda yozadi. Dastlab yigitlik yillarida Arabistonga haj ziyorati uchun borganida Qur'oni karimning "Baqara" surasini sharhlay boshlaydi va uni Makka amiriga taqdim etadi. Mahmud Zamaxshariydagi Qur'onning mo'jizaligini ko'rsata olish, nazmining go'zalligi, balog'atining yuksakligi ochib berish mahorati uni hayratga soladi. Olimdagi yuksak salohiyatni ko'rgan amir uni shu yerda qolishga undaydi. Zamaxshariy bu taklifga ko'nmaydi va ona yurtiga qaytib ketadi. O'z yurti Xorazmda Zamaxshariy arab tili bilan bog'liq ko'plab ilm sohalarini, jumladan, adab ilmlarini tinimsiz mukammallashtiradi.

Mahmud Zamaxshariy tafsir ilmiga qo'yilgan barcha talablarni mukammal o'zlashtirgandan so'nggina tafsir ishini davom ettiradi va uni Makkaga ikkinchi marta qilgan safari mobaynida, ya'ni 1130-1134 yillar orasida muvaffaqiyatli yakunlaydi.

"Kashshof" dunyoning ko'plab o'quv dargohlarida jumladan, Misrdagi Azhar universitetida ham tafsir bo'yicha asosiy manba sifatida o'qitilmoqda. Asar boshqa tafsirlarda bo'lmagan ko'p afzalliklari bilan ajralib turadi. Bu o'rinda allomaning Qur'oni karimdagi balog'at, fasohat, bayon ilmlariga doir tomonlarini ochib berishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tafsir manbalarida "Kashshof" va uning muallifiga yuksak baho berilgan. Asarning tili, uslubi, balog'ati va fasohati to'g'risida qimmatli fikrlar bildirilgan. Asarning yuqori ilmiy saviyasi uning zamondosh va keyingi davr olimlari tomonidan keng o'rganilishiga sabab bo'lgan.

Abul Barakat Nasafiy "Tafsiri Nasafiy" asari. Olimning to'liq ismi Hofiziddin Abul Barakat Abdulloh ibn Ahmad Nasafiy bo'lib, Nasaf sharida milodiy 1232-yilda tavallud topgan.⁵⁴ Ushbu asarning to'liq nomi "Madorik tanzil va haqiqat ta'vil" ("Qur'on mohiyati va ta'vil haqiqatlari") bo'lib, Nasafiyning eng mashhur asari hisoblanadi, u musulmon olamidagi Qur'onga yozilgan mo'tabar tafsirlardan biridir. Abul Barakatning tafsirga oid asari qolganlari ichida mavzu, uslub va ilmlarning keng qamrovliligi jihatidan shoh asar hisoblanadi. Shuningdek, ushbu zot tafsir sohasida mashhur asar yozish bilan Imom Moturidiy uslubini davom ettiradi hamda Qur'on oyatlarini tafsir qilish mobaynida moturidiylik aqidaviy ta'limotining mustahkamlanishida katta hissa qo'shadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, Nasafiy davrida mo'taziliy, qadariy, jabariy, qarmatliy kabi turli botil oqim vakillarining qarashlariga o'z kitobida ko'p bora ilmiy javob va tushuntirishlar bergan. Chunki mo'g'ullar davrida ilm-ma'rifat va ilmiy tafakkurning yo'qolishi barobarida odamlarni birlashtiradigan yagona g'oya hamda mafkura ham yo'q bo'lib borgan. Bu holatdan turli oqim va toifa vakillari o'z aqidalarini yoyish uchun ustalik bilan foydalanmoqchi bo'lganlar. Bunday paytda islom ta'limoti keng yoyilgan o'lkalarda Qur'onning asl ma'nosini talqin etuvchi mukammal tafsirlarga ham ehtiyoj sezilgani tabiiy holdir.

⁵⁴ Abul Barakat Nasafi. Madarik at-tanzil va haqiqat at-ta'vil. Beyrut: Dar Tahqiq al-Kitab.2018

Tafsirning yozilishi haqidagi ushbu mulohazalami Imom Nasafiyning o'zi aytgan quyidagi so'zlari ham isbotlaydilar: "Mendan yaqinlarim Qur'onni ta'vil qiluvchi, turli qiroatlar va harakat uslublari ko'rsatilgan, ahli sunna va-l-jamoa aqidasiiga muvofiq keladigan, adashganlar va bid'at ahli so'zlaridan xoli bo'lgan, malollik tug'dirmaydigan hamda tushunarsiz darajada qisqa bo'lmagan tafsir yozishimni so'rar edilar. Men dastlab ikkilandim. Nihoyat, Allohning tavfiq va inoyati ila tafsir yozishga kirishdim hamda uni oz muddat ichida yozib tamomladim. Kitobimni "Madorik tanzil va haqiqi ta'vil" deb nomladim. Alloh barcha ishlarni yengillashtiruvchi, xohlagan narsasini qilishga qodir va duoni tez ijobat qilguvchi zotdir".

Nasafiyning "Madorikut-tanzil va haqiqut-ta'vil" nomli tafsiri Bayzoviy va Zamaxshariyning tafsirlaridan qisqartirib olingan. Lekin muallif "Kashshof"dagi mo'tazila e'tiqodiga muvofiq masalalarni chiqarib tashlab, ularni "ahli sunna" e'tiqodiga mos ravishda yozgan. Bu tafsir o'rtacha hajmda bo'lib, unda qiroatlar, e'rob yo'nalishlari bilan birga "Kashshof"dagi balog'iy nuqtalar, go'zal iboralar, nozik ma'nolarni kashf qilish kabi fazilatlar jamlangan.

Tafsirning uslubi "Kashshof"dagidek savol-javob uslubidadir. Biroq unda "agar unday so'ralsa, bunday javob beriladi" qabilida emas, oyatning tafsiri asnosida go'yo yashirin savol paydo bo'lgan-u, yozilayotgan tafsir o'shanga javob bo'layotgandek uslub tanlangan.

Abu Lays Samarqandiy "Bahrul-ulum" asari. Alloma hijriy 301-310 yillar oralig'ida Samarqanda shahrida tug'ilgan bo'lib, tafsir, fiqh, usul, aqida bo'yicha ko'plab asarlar yaratgan olimlardan biridir.

Imom Abu Lays Samarqandiyning "Bahr al-ulum" - "Ilmlar ummoni" deb nomlagan tafsiri "At-tafsir bil-ma'sur" toifasidandir. Bu asar Xuroson va Movarounnahrda shu yo'lda yaratilgan ilk asar, tafsir ilmining asosi sifatida baholanadi. Allomaning tafsiri ilmiy jihatdan nihoyatda mukammal yaratilgan.

Asar quyidagi jihatlari:

1. Har bir suraning qayerda, qanday holda nozil bo'lganligi;
2. Oyati karimalarning mashhur mufasssirlar qanday sharhlagani;
3. Oyatlarning nozil bo'lish sabablari, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni aniq, sodda, ravon qilib bayon etilganligi;
4. Oyatlarini tafsir qilishda fiqhiy, aqidaviy hukmlarni keltirilganligi bilan e'tiborga loyiq.

Muhammad Husayn az-Zahabiy "at-Tafsir val-mufasssirun" asarida Samarqandiyning "Bahr al-ulum" tafsiri haqida shunday deb yozadi: "Bu tafsirni ko'p marotaba o'qib chiqdim, muallif bir bobida salaf ulamolaridan rivoyat qilgan holda kishilarni tafsir ilmini o'rganishga chaqirishini va uning fazilatini bayon qilishini ko'rdim. So'ng arab tilini hamda oyatlarning nozil bo'lish sabablarini yaxshi bilmagan holda oyatlarni tafsir qilish mumkin emasligini bayon qilgan. U tafsirga bo'lgan hurmatni nafaqat o'z fikri bilan, balki salaf ulamolarining so'zlari bilan ham

asoslaydi. Agar biror kishi arab tilini va oyati karimalarning nozil bo'lish sabablarini yaxshi bilmasa, tafsimi o'rgansin, yod olishga harakat qilsin, oyatlar haqida ma'lumot berishni xohlasa, biror olimdan hikoya tarzida gapirib berishi mumkindir", deb ta'kidlaydi.

O'z zamonining olimlari Abu Lays Samarqandiyning tafsirshunoslikning asoschisi, deya e'tirof etdi. Undan keyin ko'plab mufasssirlar Qur'oni karimga sharhlar bitdi. Ularga Abu Lays Samarqandiyning tafsiri asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Shu sababli zamondoshlari unga "Imomul-xuda" — "To'g'ri yo'l imomi" degan yuksak nom berdilar.

Mufasssir salaf ulamolarining sahoba va tobeinlarning so'zlaridan keltirib tafsir qiladi. Abu Lays Samarqandiy arab, fors, turkiy tillar qatorida ibroniy tilni ham mukammal bilgan. O'sha davrda Samarqandda 30 ming yahudiy istiqomat qilgan. Alloma ibroniy tilda yozilgan tavrotni bemalol o'qirdi. Qur'ondagi bir oyat boshqa bir oyatni tushuntirib beradigan bo'lsa, Qur'onni Qur'on bilan sharhlaydi. Isroil qissalaridan ham rivoyatlari uchrab turadi. Ko'pincha ba'zilar unday dedi, ba'zilar bunday dedi, deb ham zikr etadi. Ba'zi qiyin joylarda o'quvchiga savol berib, so'ng unga o'zi javob beradi. Qur'onda ixtilof va qarama-qarshilik bor, deb o'ylayotgan kishilarga e'tiroz bildirib, ularning shubhalarini bartaraf etadi. Kitob juda nodir ma'lumotlarni jamlagan. Unda mufasssir naql bo'yicha tafsir va aql bo'yicha tafsimi bir joyda jamlab, naqliy jihatni aqliy jihatdan ustun qo'ygan. Shuning uchun bu tafsirni manbalarga asoslangan (ma'sur) tafsir deb hisoblaymiz.

Allomaning "Bahr al-ulum" tafsirining bir nechta nusxalari mavjud. Ikki nusxasi Misr Arab Respublikasi kutubxonalarida, bir nusxasi Edinburg kutubxonasida saqlanmoqda. Uch jildlik ushbu asar Misr Arab Respublikasining "al-Azhar" universiteti doktorlari Muhammad Muavvaz, Ahmad Abdulmavjud va Abdulmajid an-Nutiylar tomonidan o'rganilib, 1993 yil Bayrutda nashr etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida 2824 raqamli tafsiming to'liq nusxasi hamda 3294/IX raqami ostida 3 varaqdan iborat bo'lgan parchasi mavjud. Umumiy hisobda tafsiming 77 nusxasi hozirgi davrgacha yetib kelgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Movarounnahr tafsir maktabining yirik namoyandalari — Abu Lays Samarqandiy, Imom Moturidiy, Abul Barakot Nasafiy, Imom Zamaxshariy va bir qancha mufasssirlar o'zlarining noyob asarlari bilan tarixda o'chmas iz qoldirdilar. Mufasssirlar o'ziga xos yondashuv orqali Qur'on oyatlarini sharhlashda ilmiy, axloqiy, fiqhiy va tilshunoslik jihatlarini uyg'unlashtirgan. Abu Lays Samarqandiy tafsirida amaliy va axloqiy masalalarni yoritish, Imom Moturidiy asarlarida aqidaviy jihatlarini dalillash, Zamaxshariy esa til va uslubiy go'zallikni chuqur tahlil qilish orqali Movarounnahr tafsir maktabining boy ilmiy an'anasi shakllangan.



Shu tariqa, ularning ijodi nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlar Qur'on ilmi va tafsirshunoslik faoliyatida muhim metodologik manba bo'lib xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zarkashiy. Burhon fi ulumil-Qur'on. 4jildli. Qohira: Maktaba Dorut turos. 2002
2. Suyutiy. Itqon fi ulumil Qur'on. 2jildli. Qohira: Dorul hadis. 2004. B. 25-35
3. Maxsudov D. Movarounnahr hanafiy mazhabi tafsirlarining qiyosiy tahlili dissertatsiya. T: O'zXIA, 2020 B.145
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur'on ilmlari. Toshkent: Hilol nashr, 2017. B.112